



Dilobar NORMUMINOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
E-mail: normominovadilobar@gmail.com

DSc, professor K.Mavlonova taqrizi asosida

THE CURRENT STATE OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN MOTHER TONGUE EDUCATION

Annotation

This article analyzes the current state of organizing extracurricular activities in mother tongue education. Based on a survey, the study identifies teachers' experience, availability of resources, students' participation and motivation, as well as existing challenges. The findings show that extracurricular activities are predominantly conducted in traditional formats, while innovative and creative approaches are not sufficiently implemented. The article proposes scientific and practical recommendations aimed at addressing these issues and improving the effectiveness of extracurricular activities.

Key words: Mother tongue, extracurricular activities, methodology, innovative approach, student motivation, creative activity.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОБУЧЕНИЮ РОДНОМУ

Аннотация

В статье анализируется современное состояние организации внеурочной деятельности по предмету «родной язык». На основе анкетирования выявлены опыт учителей, возможности использования ресурсов, уровень участия и мотивации учащихся, а также существующие проблемы. Результаты исследования показали, что внеурочная деятельность по родному языку преимущественно осуществляется в традиционных формах, тогда как инновационные и творческие подходы внедряются недостаточно. В статье представлены научно-практические рекомендации по устранению выявленных проблем и повышению эффективности внеурочной деятельности.

Ключевые слова: Родной язык, внеклассная работа, методика, инновационный подход, мотивация учащихся, творческая деятельность.

ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

Annotatsiya

Maqola ona tili ta'limida sinfdan tashqari ishlarning bugungi holatini tahlil qiladi. So'rovnomasida o'qituvchilarning tajribasi, resurslardan foydalanish imkoniyatlari, o'quvchilarning ishtiroki va motivatsiyasi, shuningdek, mavjud muammolar aniqlangan. Tadqiqot natijalari sinfdan tashqari ishlarning asosan an'anaviy shakllarda amalga oshirilayotganini, innovatsion va ijodiy yondashuvlarning yetarli darajada tatbiq etilmaganini ko'rsatdi. Maqolada bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Ona tili, sinfdan tashqari ishlar, metodika, innovatsion yondashuv, o'quvchi motivatsiyasi, ijodiy faoliyat.

Kirish. Ona tili ta'limida o'quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalariga bo'lgan talab bugungi kunda keskin ortib bormoqda. Ta'lim jarayonining modernizatsiya qilinishi, raqamli axborot oqimining kuchayishi, yangi pedagogik texnologiyalar va ta'lim sifati bo'yicha qo'yilayotgan talablar sinfdagi dars bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, erkin muloqot, izlanish va kreativ faoliyat kabi ko'nikmalar aynan sinfdan tashqari mashg'ulotlar davomida faol shakllanadi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari ishlarning bugungi holati ta'lim tizimi oldida bir qator jiddiy vazifalarni qo'yimoqda. Eng avvalo, umumta'lim maktablarining ko'pchiligida sinfdan tashqari mashg'ulotlar asosan an'anaviy shakllar – adabiy to'garak, insholar tanlovi, rasmiy tadbirlar bilan cheklanib qolgan. Bunday faoliyatlar o'quvchini faollikka emas, ko'proq tayyor ssenariyni bajarishga yo'naltiradi. Zamonaviy ta'lim esa sinfdan tashqari ishlarni o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantiruvchi jarayon sifatida tashkil etishni talab etadi.

Ikkinchi dolzarb muammo – o'qituvchilarning sinfdan tashqari ishlarni zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil

etish bo'yicha tayyorgarlik darajasining turlicha ekanidir. Ayrim o'qituvchilar innovatsion metodlar, kommunikativ yondashuvlar, drama, debat, loyiha faoliyati yoki media-ijod kabi faoliyatlarni samarali joriy eta olsalar, boshqalarida metodik resurslar, namunaviy mashg'ulotlar, interfaol topshiriqlar bazasi va amaliy ko'nikmalar yetishmaydi. Bu esa sinfdan tashqari ishlarning sifatida jiddiy nomuvofiqliklarga sabab bo'lmoqda.

Mazkur holatni chuqurroq o'rganish maqsadida ona tili o'qituvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnomasida natijalari ham muammoning keng qamrovli ekanini tasdiqladi. Respondentlarning 60 foizdan ortig'i sinfdan tashqari ishlarni muntazam tashkil etishda vaqt, sharoit va metodik materiallar yetishmasligini bildirgan. 55 foiz o'qituvchi o'quvchilarning qatnashish faolligi pastligini eng asosiy muammo deb ko'rsatgan, 48 foiz o'qituvchi yangi shakllarni qo'llash bo'yicha tayyor metodik qo'llanmalar yo'qligini ta'kidlagan. Bu ko'rsatkichlar sinfdan tashqari ishlar sifatining butun o'quv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini aniq ko'rsatadi.

Muammoning yana bir jihati – sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda zamonaviy kommunikativ, kreativ va media asosidagi yondashuvlar uchun metodik ta'minot yetarli

darajada shakllanmaganidir. To'garak mashg'ulotlari, tadbir ssenariylari, interfaol o'yin va topshiriqlar, ijodiy loyiha namunalarning tizimli to'plami mavjud emas. Natijada o'qituvchilar o'z tajribalariga tayanishga majbur bo'ladilar, bu esa faoliyatning sifati va samaradorligini bir me'yor darajasida tashkil qilishni qiyinlashtiradi.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni masalasi ona tili ta'limini samarali tashkil etishning muammolaridan biridir. Mazkur mavzu bo'yicha ayrim ilmiy ishlar mavjud bo'lsa-da, sinfdan tashqari ishlarning bugungi holatini empirik tahlil qilish, metodik ehtiyojlarni aniqlash hamda bu faoliyatni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirishga qaratilgan mukammal metodik yondashuv hali ishlab chiqilmagan.

Shu bois ushbu tadqiqot ona tili ta'limida sinfdan tashqari ishlarning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, o'qituvchilarning ehtiyoj va muammolarini aniqlash, mavjud amaliyotning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash hamda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ona tili ta'limida sinfdan tashqari ishlarga doir masalalar jahon miqyosida turli olimlar tomonidan o'rganilgan. J. Harmer [5], Z. Do'rbyei [4], S. Ismailia [6], Y. Yildiz [9], N.Shanskiy [10], L.Zakhir [11] kabi tadqiqotchilar sinfdan tashqari faoliyatning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni, o'quvchi mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish, ijodiy muhit yaratish, loyiha, drama, debat va media asosidagi mashg'ulotlarning samaradorligi bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borganlar.

Mamlakatimizda sinfdan tashqari ishlar masalasi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. O'. Quldosheva [7], S. Ukibayeva [8], D. Boymaxmatova [3], N. Ahrorov [1], kabi tadqiqotchilar sinfdan tashqari ishlarning maqsadi, vazifalari, an'anaviy va zamonaviy shakllari, o'quvchilarda qiziqish va ijodiy faollikni shakllantirishning didaktik asoslari bo'yicha muhim ilmiy ma'lumotlar bergan. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlar tahlili sinfdan tashqari ishlarning bir necha muhim jihatlari hali yetarlicha o'rganilmaganini ko'rsatadi.

Avvalo, sinfdan tashqari faoliyatning o'quvchilar nutqiy va ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi aniq ta'siri, interfaol shakllarning samaradorligini aniqlashga oid chuqurlashtirilgan tahlil va baholash yondashuvlari ilmiy adabiyotlarda kam uchraydi. Ko'plab tadqiqotlar an'anaviy to'garak ishlari bilan cheklanib, zamonaviy texnologiyalar, media mahsulotlar yaratish, axborot platformalaridan foydalanish, loyiha asosidagi o'qitish kabi shakllarni amaliyotga joriy etish bo'yicha yetarli tavsiyalar bermaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari ishlarning nazariy asoslari qisman o'rganilgan bo'lsa-da, amaliyotning real holatini aniqlash, metodik ehtiyojlarni belgilash, zamonaviy shakllarning samaradorligini ilmiy asoslash hamda o'qituvchilarning ushbu jarayonga tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan metodik tizim hali yaratilmagan. Mavjud ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ona tili ta'limida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning bugungi holatini har tomonlama o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatdagi ishtiroki, o'qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi, qo'llanilayotgan faoliyat turlarining samaradorligi hamda ta'lim jarayonining ehtiyojlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotda nazariy, empirik va statistik metodlarning uyg'un majmuasi qo'llandi.

So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchilar hudud, ish tajribasi, maktab turi va ish sharoitlari bo'yicha farqlanishi tadqiqot natijalarining qamrovini kengaytirdi. So'rov Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi 25 ta umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan 54 nafar ona tili o'qituvchisi o'rtasida o'tkazildi. So'rovnomada quyidagi yo'nalishlar o'rganildi:

sinfdan tashqari ish shakllari va ularning qo'llanish darajasi;

o'quvchilarning ishtiroki va motivatsiyasi;

metodik qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyoj;

o'qituvchilarning taklif va ehtiyojlari.

Olingan ma'lumotlar foizli tahlil asosida jadval ko'rinishida umumlashtirildi, respondentlar fikrlaridagi o'xshashlik va tafovutlar aniqlanib, natijalar statistik jihatdan talqin qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida olingan empirik ma'lumotlar ona tili ta'limida sinfdan tashqari ishlar amaliyoti ko'plab maktablarda nazariy jihatdan belgilangan talablarga to'liq javob bermasligini, faoliyatning mazmuni va shakllari bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. So'rovnoma natijalari sinfdan tashqari ishlarda qo'llanayotgan usullar, o'quvchilarning ishtiroki, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va faoliyat samaradorligini belgilovchi omillarni tahlil qilish imkonini berdi.

Faoliyat shakllari bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, maktablarning aksariyatida sinfdan tashqari ishlar asosan an'anaviy faoliyatlar – adabiy to'garaklar, insholar tanlovi, adabiy kechalar va mavzuga oid rasmiy tadbirlar shaklida tashkil etiladi. O'qituvchilarning 58 foizi ushbu faoliyatlarini "muntazam qo'llaniladigan asosiy shakl" sifatida ko'rsatgan bo'lsa, 54 foizi "zamonaviy, innovatsion metodlarni tatbiq etish uchun yetarli sharoit yo'qligini" bildirgan. Drama, debat, loyiha ishlari, media-ijod, rolli o'yinlar kabi faol ishtirok va ijodiy yondashuvni talab qiladigan shakllar esa 6-8 foiz o'qituvchilar amaliyotida uchragan. Bu ko'rsatkich sinfdan tashqari ishlarning ko'pchilik maktablarda rasmiylashtirilgan faoliyatga aylanib qolganini anglatadi.

O'quvchilarning ishtiroki va motivatsiyasi masalasi ham tadqiqot natijalarida alohida e'tibor qaratilgan jihatlardan biridir. So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchilarning 63 foizi "faqat ayrim o'quvchilar muntazam qatnashadi" deb ta'kidlagan, 27 foizi esa "o'quvchilarning qatnashish faolligi juda past" degan fikrni bildirgan. Bu ko'rsatkichlar faoliyat shakllarining o'quvchini jalb etish qobiliyati sust ekanidan dalolat beradi. O'quvchilar qiziqishining pastligi sababi sifatida o'qituvchilar faoliyatlarining bir xil va takroriyliigi (48%), kreativ topshiriqlarning yetishmasligi (44%), rag'batlantirish tizimining kuchsizligi (39%) va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilmasligini (36%) ko'rsatgan.

O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham natijalar tahlilida muhim o'rin egalladi. So'rovnoma ishtirokchilarining 52 foizi sinfdan tashqari ishlarni zamonaviy shakllarda tashkil etish uchun kerakli metodik materiallar yetarli emasligini bildirgan. 46 foizi mazkur faoliyat uchun namoyishli mashg'ulotlar, ssenariylar, topshiriqlar to'plami, loyiha namunalarning yo'qligini muammo sifatida qayd etgan. 38 foiz o'qituvchi drama, debat, media-ijod, raqamli platformalar kabi faoliyatlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarining pastligi sababli bu shakllarni qo'llay olmayotganini aytgan. Bu natijalar sinfdan tashqari ishlar sifati bevosita o'qituvchining metodik tayyorgarlik darajasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Resurslar va sharoitlar bo'yicha olingan ma'lumotlar ham e'tiborga molik. O'qituvchilarning 57 foizi zarur texnik jihozlar, o'quv resurslari, ijodiy faoliyat uchun moslashtirilgan sinfxona yetishmasligini asosiy muammo sifatida qayd etgan. 41 foiz respondent "internet resurslari va raqamli platformalar

bilan ishlash imkoniyati cheklangan” deb javob bergan. Bu holat sinfdan tashqari ishlar innovatsion xarakterga ega bo'lishi uchun moddiy-texnik baza hamda raqamli infratuzilma muhim rol o'ynashini yana bir bor tasdiqlaydi.

Faoliyat samaradorligini baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot ko'nikmalari va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muayyan natija berayotgan bo'lsa-da, bu natijalar muntazam va tizimli emas. Respondentlarning 49 foizi “faoliyat natijasi juda past yoki o'rtacha” deb baholagan. Tahlil jarayonida sinfdan tashqari ishlarni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan yo'nalishlar ham aniqlandi. O'qituvchilarning 68 foizi “tayyor metodik qo'llanmalar, to'garak dasturlari, ssenariylar va topshiriqlar majmuasi zarur”ligini bildirgan bo'lsa, 62 foiz o'qituvchi “innovatsion metodlar bo'yicha amaliy seminarlar” o'tkazishni taklif qilgan. Bu takliflar sinfdan tashqari ishlarni sifat jihatidan yangilash uchun metodik yordam va o'qituvchilar malakasini oshirish ishlari eng muhim omil ekanini ko'rsatadi. Bu esa sinfdan tashqari ishlarni takomillashtirish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, ijodiy va interfaol yondashuvlarni tatbiq etish zarurligini taqozo qiladi.

Xulosa va takliflar. So'rovnoma natijalari ona tili ta'limida sinfdan tashqari ishlarning bugungi holati bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Olingan empirik ma'lumotlar faoliyatning ko'p qismi an'anaviy shakllarda amalga oshirilayotganini, uning mazmuni aksariyat maktablarda hali zamonaviy pedagogika talablari darajasida yangilanmaganini tasdiqlaydi. O'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlardagi ishtiroki asosan iqtidorli o'quvchilar doirasida cheklangani, faoliyatning kreativ va interfaol shakllarining kamligi ularning motivatsiyasiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasidagi nomuvofiqliklar faoliyatning izchil va barqaror bo'lishiga to'sqinlik qiladigan asosiy omillardan biridir. Shuningdek, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan sinfdan tashqari ishlar samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy asoslangan mezonlarning yetishmasligi, faoliyatning real natijalarini diagnostika qilishga mo'ljallangan tizimlarning mavjud emasligi aniqlangan. Bu esa sinfdan tashqari ishlarni rivojlantirish jarayonida ilmiy yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Tadqiqotning yana bir muhim xulosasi –o'qituvchilar uchun tayyor metodik qo'llanmalar, interaktiv topshiriqlar majmuasi, to'garaklar uchun namunaviy dasturlar va ijodiy faoliyat ssenariylarining yetishmasligidir.

Umuman olganda, sinfdan tashqari ishlarning hozirgi holati ularni modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik

texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarni faol va kreativ jarayonga jalb qilish hamda o'qituvchilarni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi. Bunda quyidagi metodik tavsiyalar taklif qilinadi:

- sinfdan tashqari ishlarning mazmunini innovatsion shakllar bilan boyitish;
- drama, debat, rolli o'yinlar, ijodiy sahnalar, loyiha ishlari, media-ijod, podkast va videoblog yaratish kabi faoliyatlarni joriy etish;
- kommunikativ va kreativ yondashuvga asoslangan topshiriqlarni keng qo'llash;
- o'qituvchilar uchun metodik ta'minotni kuchaytirish;
- to'garak mashg'ulotlari uchun namunaviy dasturlar, interaktiv ssenariylar, topshiriqlar majmuasi va ijodiy loyihalar bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish;
- zamonaviy sinfdan tashqari faoliyatlarni tashkil etish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish;
- sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda raqamli va media texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;
- onlayn platformalar (Kahoot, Quizizz, Padlet, Jamboard), raqamli ijod vositalari, audio-video kontent tayyorlash imkoniyatlarini joriy etish;
- o'qituvchilarni media savodxonlik bo'yicha o'qitish;
- o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni kuchaytirish;
- rag'batlantirish tizimi, ijodiy portfoliolar, natijalarni ommalashtirish, kichik loyihalar ko'rgazmalarini tashkil etish;
- o'quvchilarning qiziqishlariga mos klub va studiyalar yaratish;
- sinfdan tashqari ishlarning samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish;
- o'quvchi ishtiroki, kreativlik darajasi, nutqiy faollik, muloqot ko'nikmalari va ijodiy mahsulot sifatiga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish;
- sinfdan tashqari faoliyatni muntazam tahlil qilib boruvchi diagnostik vositalarni ishlab chiqish.
- maktablarda sinfdan tashqari ishlar uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ijodiy faoliyat uchun mos xonalar, texnik vositalar, teatr uskunalar va media studiya elementlarini joriy etish;
- maktab kutubxonalarini bazasini kengaytirish;
- Koreya, Finlandiya, Yaponiya va Turkiya ta'lim tizimlarida qo'llanilayotgan kreativ klublar, loyiha asosidagi ta'lim, drama va til studiyalari kabi yondashuvlarni o'rganish va ularni moslashtirilgan shaklda joriy etish.

Taklif etilgan yondashuv sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etishga, o'quvchilar faolligini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ahrorov A. Ona tilidan sinfdan tashqari darslarda innovatsion ta'lim metodidan foydalanish. 2021.
2. Baranov M. Puti razvitiya interesa k urokam russkogo yazyka. Moskva: Prosveshcheniye. 1964
3. Boymaxmatova D. Ona tili fanidan tashkil etiladigan interaktiv to'garaklarning yondashuv va tamoyillari. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. –Toshkent, 2021. –B. 268–275.
4. Do'rnyei, Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.2021.
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education. 2015.
6. Ismailia M., Dewangga D. Students' Participation in Extracurricular Language Activities. International Journal of Language Learning and Culture, 4(2), 2017. – P. 45–53.
7. Quldosheva O'. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning ona tili faniga qiziqishini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari. Ta'lim va rivojlanish tahlili, 4-son. 2024. –B. 34–37.
8. Ukibayeva S. Ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkillashtirish usullari. Boshqaruv va etika qoidalari jurnali, 2-son. 2023. – B. 132–134.
9. Yildiz Y. The Role of Extracurricular Activities in Foreign Language Learning. IBSU Press.2016.
10. Shanskiy N. M. Pedagogicheskoe sodernanie i lingvodidakticheskiy xarakter vneklassnoy raboti. Russkiy yazyk za rubejom, (2),2002. – C. 66–68.
11. Zakhir L. Student-Centered Approaches in Language Classrooms. Journal of Language Studies.2019.